


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Sh.K.Yakubova</b>	
Methodological and didactic requirements for demonstration experiments in secondary school .....	130
<b>Д.А.Юсупова</b>	
Влияние деформации и введения примесей на уровень ферми и плотность эффективного поверхностного заряда в пленках теллуридов висмута-сурымы .....	134
<b>F.K.Yusupova</b>	
Turdosh fanlar integratsiyasini takomillashtirishda picrat modelini qo'llash.....	140
<b>A.A.Yuldashev</b>	
Sifatli optronlar yaratish.....	144
<b>Sh.A.Yuldashev, S.M.Zaynolobidinova</b>	
Ikkilamchi issiqlikni yorug'likga aylantiruvchi optoelektron qurilma .....	149
<b>E.A.Ergashev</b>	
Biologik suyuqliklarning suvsizlanishida yuzaga kelgan fatsiyalarning xususiyatlarini baholash .....	154

## KIMYO

<b>M.Y.Ismoilov, Sh.V.Inobiddinova</b>	
Peganum harmala o'simligini makro va mikroelementlari.....	158
<b>M.Y.Ismoilov</b>	
Tog' minerallari tarkibini tadqiq qilish.....	163
<b>M.Y.Ismoilov</b>	
Farg'ona vodiysi tog' minerallari tarkibini tadqiq qilish .....	170
<b>M.T.Kurbanova, G.I.Qoraboyeva, D.U.Mamaraimova, I.J.Jalolov</b>	
Xanthoparmelia conspersa va Xanthoria elegans lishayniklarining flavonoid tarkibini tadqiq etish .....	173
<b>G.I.Qoraboyeva, M.T.Kurbanova, I.J.Jalolov</b>	
Dermatocarpon miniatum va Lecanora argopholis lishayniklarining flavonoid tarkibini tadqiq etish .....	176
<b>S.A.Karimova, M.Y.Imomova</b>	
Rubus idaeus L. (Malina) va Rubus caesius L. (Ko'kimir maymunjon) o'simliklari tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash.....	180
<b>J.I.Tursunov, A.A.Ibragimov</b>	
Aconitum septentrionale Koelle o'simlididan $\beta$ -sitosterin ajratib olish .....	186
<b>R.M.Nazirtashova, Sh.M.Qirg'izov, J.I.Tursunov</b>	
Cucumis sativus o'simligi poya va barg qismini antioksidantlik xususiyatini o'rganish .....	189
<b>T.Sh.Amirova, M.O.Rasulova, G.A.Umarova</b>	
Qoramol, qo'y va echki terisining IQ spektrlari tahlili .....	193
<b>T.Sh.Amirova, Sh.Sh.Shermatova</b>	
O'simliklardan bo'yoq olish va ularni IQ spektrini o'rganish .....	197
<b>O.M.Nazarov, T.Sh.Amirova, S.R.Komilova</b>	
Matolarining rang mustahkamligi, terga chidamligi va rangini ishqalanishga chidamligini aniqlash.....	204
<b>T.Sh.Amirova, Z.B.Xoliqova</b>	
Ipak matolarining IQ spektri tahlili .....	208
<b>O.A.Abduhamedova, O.M.Nazarov</b>	
Yerqalampir o'simligining kimyoviy tarkibi va xalq tabobatida qo'llanilish usullari .....	213
<b>I.R.Asqarov, M.A.Xolmatova</b>	
Ravoch ( <i>Rheum</i> ) va Jusay ( <i>Allium odorum</i> ) o'simliklari aralashmasi asosida olingan "AS RHEUM" oziq-ovqat qo'shimchasining suvda eruvchi vitaminlar tahlili .....	216
<b>X.N.Saminov, O.M.Nazarov, Q.M.Sherg'oziyev</b>	
<i>Punica granatum</i> L. o'simligining aminokislota tarkibini o'rganish.....	219
<b>О.М.Назаров, Х.Н.Саминов</b>	
Биологическая активность растений рода <i>Nitraria</i> .....	224
<b>M.A.Axmadaliyev, N.M.Yakubova</b>	
Turli o'simliklar asosida furfurol olish.....	228



**XANTHOPARMELIA CONSPERSA VA XANTHORIA ELEGANS LISHAYNIKLARINING  
FLAVONOID TARKIBINI TADQIQ ETISH**

**ИЗУЧЕНИЕ ФЛАВОНОИДНОГО СОСТАВА ЛИШАЙНИКОВ XANTHOPARMELIA  
CONSPERSA И XANTHORIA ELEGANS**

**STUDY OF FLAVONOID CONTENT OF XANTHOPARMELIA CONSPERSA AND XANTHORIA  
ELEGANS LICHENS**

<sup>1</sup>**Kurbanova Maftunaxon Temurbek qizi** 

Farg'ona davlat universiteti Bioorganik kimyo ixtisosligi Tayanch doktoranti

<sup>2</sup>**Qoraboyeva Gulnozaxon Islom qizi** 

Farg'ona davlat universiteti Tovarlar kimyosi ixtisosligi Tayanch doktoranti

<sup>3</sup>**Diyora Mamaramova Usmonjonovna**

Farg'ona davlat universiteti Kimyo kafedrasi magistranti

<sup>4</sup>**Jalolov Iqboljon Jamolovich** 

Farg'ona davlat universiteti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya**

Inson organizmi uchun keng qirrali foydasi tufayli tabiiy manbaalardan flavonoidlар ajratib olishga qiziqish yildan yilga ortib bormoqda. O'simliklarning antioksidantlik xususiyatini ham aynan flavonoidlар belgilab berishi tabiiy manbaalar tarkibidagi flavonoidlarni o'rGANISHNING yana bir muhim sabablardan biridir. Shu sababdan, tadqiqotimiz maqsadi sifatida Respublikamiz hududida o'suvchi Xanthoparmelia conspersa va Xanthoria elegans lishayniklari flavonoidlarining sifat tarkibini yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YSSX) metodi yordamida o'rGANISH belgilandi. Izlanishlar natijasida Xanthoparmelia conspersa lishaynigi robinin, rutin, gipolayetin, giperazid va kvertetsin, Xanthoria elegans lishaynigi esa robinin, rutin va giperazid kabi flavonoidlar saqlashi ma'lum bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ushbu lishayniklarni antioksidant sifatida qo'llash istiqbolini yaratadi.

**Аннотация**

Интерес к извлечению флавоноидов из природных источников возрастает с каждым годом в связи с их широкой пользой для организма человека. Тот факт, что флавоноиды определяют антиоксидантные свойства растений, является еще одной важной причиной изучения флавоноидов в природных источниках. По этой причине целью наших исследований было изучение качественного состава флавоноидов лишайников *Xanthoparmelia conspersa* и *Xanthoria elegans*, произрастающих на территории нашей Республики, методом высокоеффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). В результате исследований установлено, что лишайник *Xanthoparmelia conspersa* содержит робинин, рутин, гиполайтин, гиперазид и кверцетин, а лишайник *Xanthoria elegans* содержит такие флавоноиды, как робинин, рутин и гиперазид. Это, в свою очередь, открывает перспективу использования этих лишайников в качестве антиоксидантов.

**Abstract**

Interest in extracting flavonoids from natural sources is increasing every year due to their wide range of benefits for the human body. The fact that flavonoids determine the antioxidant properties of plants is another important reason for studying flavonoids in natural sources. For this reason, in the course of a study using high-performance liquid chromatography (HPLC), the qualitative composition of flavonoids in the lichens *Xanthoparmelia conspersa* and *Xanthoria elegans*, growing on the territory of our Republic, was studied. As a result of research, it was found that the lichen *Xanthoparmelia conspersa* contains robinin, rutin, hypolaitin, hyperazide and querctein, and the lichen *Xanthoria elegans* contains flavonoids such as robinin, rutin and hyperazide. This, in turn, opens up the prospect of using these lichens as antioxidants.

**Kalit so'zlar:** lishaynik, flavonoid, antioksidant, robinin, rutin, gipolayetin, giperazid, kvertetsin.

**Ключевые слова:** лишайник, флавоноид, антиоксидант, робинин, рутин, гиполайтин, гиперазид, кверцетин.

**Key words:** lichen, flavonoid, antioxidant, robinin, rutin, hypolatin, hyperazid, quercetin.

## KIRISH

Fenol birikmalar tabiiy manbaalarning antioksidantlik xususiyatini belgilab beradigan asosiy moddalardan biridir. Hozirda *Xanthoria* turkumiga mansub lishayniklarning umumiylfenol birikmalarining miqdoriy tarkibi hamda antioksidantlik xususiyati aniqlangan [1] bo'lishiga qaramay, O'zbekiston hududida o'suvchi *Xanthoparmelia conspersa* va *Xanthoria elegans* turlarining fenol birikmalarining sifat tarkibi hamda biologik faolligi avval o'rganilmagan. Barchamizga ma'lum atrof muhit faktorlari (UB-nurlarning ta'siri, iqlim sharoiti, tuproq ekosistemasi) tabiiy manbalarda kechadigan kimyoviy jarayonlarning asosiy modulyatori hisoblanadi, ya'ni bizning hududda o'suvchi lishayniklarning metabolitlari sifat va miqdoriy jihatdan farqlanishi mumkin [2]. Ushbu faktorlarni inobatga olgan holda O'zbekiston hududida o'suvchi *Xanthoparmelia conspersa* va *Xanthoria elegans* turlarining flavonoid tarkibini o'rganishni maqsad qilib oldik.


## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Lishayniklar – fotosintez qilish xususiyatiga ega yashil suv o'tlari va/yoki sianobakteriyalar (fotobionlar)ning hech bo'limganda bitta zamburug' (mikobiont) bilan o'simlik tabiatiga ega simbiotik birlashmasi. Bunday birlashma morfologik, anotomik, fiziologik va biologik faoliyat jihatidan suv o'tlaridan va zamburug'lardan tubdan farq qiladigan o'ziga xos strukturani hosil qiladi. Ushbu tabiiy manbaalar turli ekstremal muhit va ekologik sharoitlarda moslasha oladi va biologik faol moddalarning muhim manbaalari hisoblanadi. Lishaynik kislotalari va fenol birikmalari lishaynik quruq massasining 10% ini tashkil etib, uning asosiy metabolit tarkibi hisoblanadi [3]. Aynan shu birikmalar UB-nurlarni yutib, zararli ekologik stresslarning ta'sirini kamaytiradi [1]. Biologik faol moddalarning bunday ko'p miqdorda to'planishi lishayniklarning farmokologik va biologik ta'sir doirasini kengaytiradi. [4]. Islandiya lishayniklari (asosan *Cetraria Islandica*) dan yaratilgan Isla-Mooc® va Broncholind va irlandiya lishayniklari (*Buellia canscens*) kabi ba'zi preparatlar antimikobakterial preparatlar sifatida hozirgi kungacha qo'llanilib kelinmoqda.

O'zbekistonning Namangan viloyatining tog'li va tog' oldi mintaqasida o'sadigan *Xanthoparmelia conspersa* va *Xanthoria elegans* lishayniklarning flavonoid tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli yordamida aniqlandi. Ekstraksiya 70% li etanol bilan ikki marta 70-75 °C da 3 soat davomida qizg'in aralashtirishda olib borildi va bunda erituvchi va o'simlik nisbati 90:20 ni tashkil etdi. Eritmalar filtrlanib, so'ng birlashtirildi. Sentrafuga qilindi va membranalni filtr orqali filtrlandi. Tahlil YSSX (HPLC) tomonidan izokratik elutsiya rejimi va diod-matritsalik detektori (DAD) yordamida amalga oshirildi. Mobil (harakatchan) fazada sifatida asetonitril va bufer eritmasi ishlatilgan. Spektral ma'lumotlar 200 dan 400 nm gacha bo'lgan spektral diapazonda o'rganildi.


## NATIJA VA MUHOKAMA

*Xanthoparmelia conspersa* va *Xanthoria elegans* lishaynik namunalari Namangan viloyati tog' oldi hududidan yig'ildi va YSSX usuli yordamida flavonoid tarkibi o'rganildi (1 va 2-rasmlar). Natijada har ikki lishaynik tarkibida robinin, rutin va va giperazid fenol birikmalari, *Xanthoparmelia conspersa* lishaynigi tarkibida *Xanthoria elegans*dan farqli ravishda gipolaetin va kvertetsin ham borligi aniqlandi (1-jadval).



1-rasm. *Xanthoparmelia conspersa* lishaynigi flavonoid tarkibi xromatogrammasi

## KIMYO



**2-rasm. *Xanthoria elegans* lishaynigi flavonoid tarkibi xromatogrammasi**

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan *Xanthoparmelia conspersa* va *Xanthoria elegans* lishayniklari tarkibida rutinning miqdori boshqa fenol birikmalariga nisbatan yuqoriroq (100 g o'simlik tarkibida mos ravishda 93,35 va 141,83 mg) ekanligini ko'rishimiz mumkin. *Xanthoparmelia conspersa* lishaynigi 100 grammida 4,66 mg gipolaetin va 18,76 mg kvertetsin saqlasa, *Xanthoria elegans* lishaynigi tarkibida ushbu birikmalar mayjud emasligi aniqlandi.

№	Nomi	Flavonoid miqdori mg/100g				
		Robinin	Rutin	Gipolaetin	Giperazid	Kvertsetin
1	<i>Xanthoparmelia conspersa</i>	23,52	93,35	4,66	35,28	18,76
2	<i>Xanthoria elegans</i>	33,03	141,83	-	32,49	-

1-jadval. *Xanthoparmelia conspersa* va *Xanthoria elegans* lishayniklarining flavonoid tarkibi  
**XULOSA**

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, *Xanthoparmelia conspersa* lishaynigi flavonoid tarkibi *Xanthoria elegans* lishaynigi flavonoid tarkibidan nafaqat miqdor balki sifat jihatdan ham farqlanadi. Ushbu lishayniklarning flavonoid tarkibini sifat jihatdan o'rganish ularning yuqori antioksidantlik xossasini isbotlashga asos bo'ladi. Antioksidantlik xossasi erkin radikallar deb nomlanuvchi zararli molekulalarning zararli ta'siridan himoya qilish xossasidir. Shuning uchun antioksidantlar inson organizmining sog'лом bo'lishi uchun muhim birikmalar hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ushbu lishayniklarning qo'llanilish sohalarini kengaytiradi va nafaqat farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida balki kosmetologiya sohasida ham qo'llash mumkinligini isbotlaydi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- NYBAKKEN, L., SOLHAUG, K. A., BILGER, W. and GAUSLAA, Y. (2004): The lichens *Xanthoria elegans* and *Cetraria islandica* maintain a high protection against UV-B radiation in Arctic habitats. *Oecologia*, 140(2): 211-216.  
<https://doi.org/10.1007/s00442-004-1583-6>
- Sulaymonov E.S., Haydarov X.Q., Hasanov M.A., Jalolov X.H., Axmedov A.Q., Toshpo'latov Y.Sh. Botanika fanidan qo'llanma. «TAFAKKUR BO'STONI» TOSHKENT-2015
- Zeynep KARAAHMETa, Kadir KINALIOĞLUb, Sinem AYDIN\* Antioxidant and Antibacterial Potencies of *Xanthoparmelia conspersa* (Ehrh.exAch.) Hale and *Dermatocarpon minutum* (L.) W. Mann. Lichens from Black Sea Region in Turkey. 2019
- Joel Boustie & Martin Grube (2005). Lichens — a promising source of bioactive secondary metabolites, Plant Genetic Resources3(2); 273–287 DOI: 10.1079/PGR200572
- Ayse Tokgoz, Bugrahan Emsen & Muhammet Dogan To cite this article: Ayse Tokgoz, Bugrahan Emsen & Muhammet Dogan (2023) Allelopathic effects of some lichens on growth and antioxidant activities of *in vitro* propagated *Bacopa monnieri* (L.) Wetst, Journal of Taibah University for Science, 17:1, 2229595, DOI:10.1080/16583655.2023.2229595.  
<https://doi.org/10.1080/16583655.2023.2229595>